



**ӘЛ-ФАРАБИ АТЫНДАҒЫ ҚАЗАҚ ҰЛТТЫҚ
УНИВЕРСИТЕТІНІҢ 90 ЖЫЛДЫҚ МЕРЕЙТОЙЫ**

«Э.ТЕНИШЕВ КЕҢІСТІГІ: ТҮРКІТАНУ ЖӘНЕ ҒЫЛЫМДАҒЫ ҒҰМЫР»

ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ҒЫЛЫМИ КОНФЕРЕНЦИЯ

МАТЕРИАЛДАР ЖИНАҒЫ

**Қазақстан Республикасы
25-26 сәуір Алматы, 2024**

**THE COLLECTION OF MATERIALS OF THE
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND THEORETICAL CONFERENCE**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE DEDICATED to the 90th
ANNIVERSARY of KAZNU AL-FARABI**

«E.TENISHEVSKY SPACE: TURKOLOGY and SCIENTIFIC LIFE»

**Republic of Kazakhstan,
25-26 april Almaty, 2024**

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

ПОСВЯЩЁННОЙ К 90-ЛЕТИЮ КАЗНУ ИМ. АЛЬ-ФАРАБИ

**«Э.ТЕНИШЕВСКОЕ ПРОСТРАНСТВО: ТЮРКОЛОГИЯ И ЖИЗНЬ В
НАУКЕ»**

**Республика Казахстан
25-26 апрель Алматы, 2024**

Mukhatbek A.M.
Kuzembekova Zh.Zh.
Kazakhstan, Almaty
AN ANALYTICAL REVIEW OF KEY FACTORS AFFECTING STUDENTS' ORAL FLUENCY IN ENGLISH.....205

Медетбекова Перизат Түктібайқызы
Мырзабек Д.
Алматы, Қазақстан
*ТІЛ МЕН МӘДЕНИЕТ САБАҚТАСТЫҒЫНДАҒЫ
«ӨМІРЛІК ҚҰНДЫЛЫҚ» ҰҒЫМЫНЫҢ ТІЛДІК
ЕРЕКШЕЛІГІ*.....214

3 Э.Р. ТЕНИШЕВТИҢ ҒЫЛЫМИ ҚЫЗМЕТІ КОНТЕКСТІНДЕГІ САЛЫСТЫРМАЛЫ-ТАРИХИ ЗЕРТТЕУЛЕР

Абдуллаева Г.С.
Мушаев В.Н.
Аттокурова С.А.
Абдуллаев С.Н.
Бишкек, Кыргызстан
*УЙҒУР ТИЛИДИКИ ИСИМ ХӘВӘРЛИК АДДИЙ ЖҮМЛИЛӘРНИҢ БИР
АКТАНТЛИҚ МОДЕЛЛИРИ*.....219

Masharibova Roxat Ozadovna
Urganch, O'zbekiston
*KOMMUNIKANTNING YOSHI VA JINSIGA XOS FE'L-ATVORNI IFODALOVCHI
BIRLIKLARNING SOTSIAL XOSLANISHI*.....223

İbrahimova Sahilə Rafiq qızı
Azərbaycan
SÖZ BİRLƏŞMƏLƏRİNİN TƏDQİQAT TARİXİ.....229

Bahriddinova Yulduzxon
Termiz, O'zbekiston
*O'ZBEK TILIDAGI BOTANIK TERMINLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING
EKVIVALENTLIK XUSUSIYATLARI*.....234

xüsusiyyətləri ilə bir-birindən fərqlənən iki qrupa ayrılır. Bunlardan biri sərbəst söz birləşmələri, digəri sabit söz birləşmələri adlanır [1, 99].

Söz birləşməsi haqqında qrammatik təlimə daxil olmayan, lakin bu və ya digər cəhətdən söz birləşməsi ilə bağlı olaraq söz birləşmələri haqqında qeydlər edilmişdir. Bu cəhətdən M.Şirəliyevin müəkkəb cümlələrə, Ə.Dəmirçizadə sintaksisə aid əsərlərini, S.Cəfərovun frazeoloji birləşmələr və söz yardıçılığına, H.Mirzəzadənin tarixi sintaksisə aid tədqiqlərini, Ə.Abdullayevin əlavə, xüsusişmə və tabeli müəkkəb cümlələrə aid əsərlərini, H.Bayramovun sabit birləşmələrə, Z.Budaqovanın sadə cümlələrə aid əsərlərini, R.Rüstəmovun və A.Həsənovun cümlə üzvləri sahəsindəki tədqiqlərini və s. əsərləri göstərmək olar ki, bu əsərlərdə müəyyən qədər dolayi yollarla, bəzən birbaşa söz birləşmələrinə toxunulmuş, söz birləşmələrinin bu və ya digər cəhəti haqqında fikir söylənilmişdir.

İstifadə edilmiş ədəbiyyat

- 1.Bayramov H. Müasir Azərbaycan dilində söz birləşmələri. Azərbaycan SSR EA nəşriyyatı, 1962, 317 səh.
- 2.Seyidov Y. Azərbaycan ədəbi dilində söz birləşmələri, Bakı, 1966, 340 səh.
- 3.Античные теории языка и стиля, Москва, 1936, 370 стр
- 4.Звегинцев В.А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях, I cild, Москва, 1960, 352 стр.
- 5.Казым-Бек М.А. Грамматика о турецко-татарского языка, Казан, 1939, 471 стр.

Bahriddinova Yulduzxon

Termiz, O'zbekiston

Termiz davlat universiteti doktoranti

Ilmiy rahbar: f.f.d. dotsent (PhD)

Xoshimxo'jayeva Mohirux

O'zbek tilidagi botanik terminli frazeologik birliklarning ekvivalentlik xususiyatlari

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi botanik terminlarning frazeologik birliklar tarkibida kelishi, ularning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari hamda frazeologik birliklar qatoridagi ekvivalentlik tushunchasi keng muhokama qilingan. Xususan bitta frazeologik birlik komponenti sifatida bir nechta botanic terminlarning qo'llanilishi va ular anglatayotgan ma'noning shu botanic termin bilan ifodalanuvchi o'simlik yoki mevaning shakli, hajmi, rangi va boshqa xususiyatlariga qiyoslab tanlanganligining muhokamasi ham mavzuning dolzarbligini ta'minlaydi. Bundan tashqari botanic terminlarning frazeologik birlik tarkibida Grammatik jihatdan tobe – hokim munosabatiga kirishishi va boshqa so'zlar bilan yaxlit bir ma'noni ifodalashga xizmat qilishi ham ahamiyatga molikdir.

Kalit so'zlar: botanik termin, frazeologik birlik, ekvivalentlik, leksikografiya, elektron lug'atlar

The summary: In this article, the occurrence of botanical terms in the Uzbek language as part of phraseological units, their linguistic and extralinguistic properties, and the concept of equivalence among phraseological units are widely discussed. In particular, the discussion of

the use of several botanical terms as a component of one phraseological unit and the selection of their meaning in comparison with the shape, size, color and other characteristics of the plant or fruit represented by this botanical term also ensures the relevance of the topic. In addition, it is important that botanic terms enter into a grammatically subordinate-dominant relationship in the phraseological unit and serve to express a single meaning with other words.

Key words: botanical term, phraseological unit, equivalence, lexicography, electronic dictionaries

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayoni oson kechmaydi, chunki bu jarayon bir qancha bosqichni o'z ichiga kiritadi. Bular so'zlarning turli xil bog'lanishi, omonim, va frazeologik birliklarning sinonimligi, turli ma'nolarni ifodalashi, polisemiya va boshqalardir. Bulardan tashqari, frazeologik birliklarda muayyan xalqqa mansub uslubiy bo'yoqdorlik mavjudki, bu ba'zi tillarda uchramasligi ham mumkin. Frazeologiya asosini tushunishda yuqorida qayd etilgan xususiyatlarini doimo esda saqlash kerak. Frazeologik birliklarning quyidagi turlari mavjud: frazema va idiomalar. Frazemalar matndagi tobe va aniq indikatorendan tashkil topgan birliklar. Idiomalar esa matndagi umumiy ma'noni belgilab beruvchi, tobe va aniqlovchilarning to'raligi va tengligini belgilovchi lug'at birliklardir. Professor Sh. Raxmatullayev ham shu fikrga qo'shilib: "Lug'at boyligi so'zlardan va shu so'zlar asosida tuzilgan iboralardan tashkil topadi. So'z lug'at boyligi sifatida leksik birlik deb, iboralar esa frazeologik birlik deb ataladi. Bular umumlashtirilib, lug'aviy birlik deb yuritiladi. Ibora lug'aviy ma'no anglatish uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra u lug'aviy birlik hisoblanadi va shu jihatdan so'z bilan bir qatorda qo'yiladi", — deydi.[1.85]

Frazeologik iboralar nutqning ta'sirchanligini, emotsional – ekspressivligini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida nutqimiz ko'rki hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan o'zbek tili frazeologizmlarining xususiyatlarini o'rganib, ularning ifodalash usullarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Tlshunos N. Turotova o'zining yapon va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni chog'ishtirib o'rganar ekan ularni quyidagicha guruhlariga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi. [2,71-73]

1. Har ikki tilda mavjud bo'lgan ekvivalent frazeologizmlar. Ular mazmun, shakl, ekspressiv-stilistik xususiyatlarni saqlagan bo'lishi lozim.

2. Har ikki tilda o'zaro o'xshash bo'lgan frazeologizmlar. Ular mazmun jihatdan o'xshash stilistik xususiyatlarni o'zida saqlagan, lekin obrazli asosi turlicha bo'lgan frazeologik variantlardir.

3. Mazmuni kontekst orqali aniqlanadigan, milliy urf-odatni ifodalovchi frazeologizmlar.

Frazeologik ekvivalent tanlashda tarjimon albatta kontekstda anglatgan mazmunga e'tibor berishi lozim, aks holda, tanlangan ekvivalent matnda ifodalangan mazmunga to'g'ri kelmay, fikriy g'alizliklarni keltirib chiqaradi. Olimlarning ta'kidlashlaricha, tarjima jarayonida bir tilga xos bo'lgan grammatik vositalarni albatta ikkinchi tilda grammatik vositalar orqali berish shart emas. Bunday hollarda tarjimada vaziyat yo kontekstga alohida e'tibor qaratish lozim. Asosiysi, tarjimada so'zlar kabi frazeologizmlarning anglatgan ma'nosini, emotsional – ekspressiv va stilistik xususiyatlarini saqlagan holda shakliy xususiyatlarini ham aks ettirish zarur. [3, 312]

Ilmiy tadqiqotimiz jarayonida biz o'zbek tilidagi botanik terminli frazeologik birliklarning ham ekvivalentlik xususiyatlarini aniqlashtirib o'rganib chiqishga harakat qildik. Bunda ma'noni uzatuvchi qisman ekvivalent leksik, grammatik yoki leksik-grammatik farqlarni o'z ichiga oladi. Demak, tarjimaning adekvatlik nuqtai nazaridan qisman ekvivalent to'liq ekvivalentga teng deyishimiz mumkin. Turli tillarga tarixiy manbalardan, mifologiyadan kirib kelgan, tildan tilga o'zlashtirilgan yoki inson tafakkurining umumiyliigi, ma'lum ma'nolarning yaqinligi tufayli turli xalqlar orasida bir-biridan mustaqil ravishda vujudga kelgan frazeologik birliklar ekvivalentlar deb ataladi. O'zaro bog'langan frazeologik birliklar tahlil qilish va taqqoslash shuni ko'rsatadiki, ularning o'zaro bog'liqligi, ekvivalentligi bir xillikdan uzoqdir.

Tarjimashunos olimlar asl tildagi frazeologik birliklarni guruhlariga bo'lib tarjima tiliga o'girishni tavsiya etgan guruhlardan uchinchi muvofiqlikning yo'qligi bo'lib, muvofiqlikning yo'qligi – asl tildagi frazeologik birlikning tarjima tilidagi ekvivalentlarining umuman uchramasligi va mazkur birliklar tarkibida asl tilga mansub (ekvivalentsiz leksik birliklar) realiyalarning uchrashidir deb hisoblaydilar. Har xil tillarda ko'p frazeologik birliklarning frazeologik moslashuvi mavjud emas. Ular realiyadir. Realialar leksik birlik bo'lib, insonlar hayotidagi milliy urf-odatlar va ularga xos bo'lgan hodisalarni anglatadi. Asliyatdagi so'zga umuman biror-bir muvofiq so'zning topilmasligi bu haqiqiy muqobilsizlik hodisasidir. Mazkur hodisa nisbatan kam uchraydi. U asosan asliyatdagi so'z boshqa xalqning xo'jaligida va tushunchalarida muqobili mavjud bo'lmagan asl mahalliy hodisani ifodalagan holda yuzaga keladi. Bunda so'zlar milliy xos realialar mavzusi doirasida keng o'rganiladi.

Yuqorida sanab o'tilganlarning barchasini e'tiborga olgan holda shuni ta'kidlash joizki, milliy rangdagi frazeologik birliklarni tarjima qilishning turli usullarini qiyoslab, asl nusxaning milliy rangini yaxshi o'tkazishini, garchi ba'zan shunday bo'lsa-da eslatmalardan foydalanilishi kerakligi muhimdir. Boshqa tomondan, o'zbek frazeologik birliklarining ekvivalentlari tarjimada milliy o'ziga xoslikni yo'qotgan frazeologik birliklarning qo'llanilishi matnning obrazli xarakterini qayta tiklaydi. Quyida esa o'zbek tilidagi botanik terminli frazeologik birliklarning ekvivalentlik xususiyatini quyidaicha o'rgandik va dalillashga harakat qildik: [4, 367]

Frazeologik birlik	Ekvivalent FB
<i>boshida danak chaqmoq</i>	<i>boshida yong'oq chaqmoq</i>
<i>tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq</i>	<i>xafsalasi pir bo'lmoq</i>
<i>dili namozshom bo'lmoq</i>	<i>ta'bi xira bo'lmoq</i>
<i>anjir bo'lmoq</i>	<i>anjiri chiqmoq</i>
<i>palak otmoq</i>	<i>tup qo'yib, palak otmoq</i>
<i>qorin piyoz po'stiday bo'lmoq</i>	<i>qorin piyoz po'stiday sirilmoq</i>
<i>Tikan ustida o'tirmoq</i>	<i>igna ustida o'tirmoq</i>
<i>shivit bo'lmoq</i>	<i>shuvut bo'lmoq</i>
<i>sholg'om bo'lmoq</i>	<i>sholg'omday qizarmoq</i>

<i>bug'doyga tushgan mitaday</i>	<i>oshga tushgan pashshaday</i>
<i>bir gul bilan yoz bo'lmas</i>	<i>bir daraxtdan bog' bo'lmas [5, 247]</i>

Darhaqiqat, frazeologizmlar ko'p hollarda so'zga o'xshash, garchi frazeologik birliklarning ma'nosi va ular ifodalayotgan so'zlarning ma'nosi o'rtasida, qoida bo'yicha, tenglik belgisini qo'yib bo'lmaydi. Frazeologizm semantikasining ko'rinarli elementi ular ifodalayotgan tushunchaning baholanishi bo'lib, shu bilan bir vaqtning o'zida so'zning ma'no strukturasi uchun baholash xususiyati past darajada bo'ladi.

Frazeologik birliklar va ular bilan tenglashtirilayotgan so'z uslubiy bo'yoqdorligi bilan farqlanadi va aloxida so'zlarga nisbatan frazeologik birliklar frazeologik sinonimlar emas balki uslubiy sinonimlar holida namayon bo'ladi. Shuni nazarda tutish kerakki maqollar va matallar ya'ni gap tuzulishidagi frazeologizmlarni faqatgina gap yordamida tanib olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili.(Darslik) Universitet - Toshkent,2006.
2. Turopova N. Yapon va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyosiy o'rganish// O'TA, 2010, 3 son 71-73-bet
3. Xudoyqulov B. Frazeologizmlarning asosiy xususiyatlari. – T, “Uchinchi renessans: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari”, 2021. – B 312.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati.1-TOM. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati 2-TOM. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti,2006.

MPHTH: 16.21.47

Khudaykulov A.E.
Termez State Univeristy
Uzbekistan

FUNCTIONING ENGLISH BORROWINGS IN UZBEK WRITTEN MONUMENTS

Abstract : Today in the globalization world, all languages interrelate with others, in the result of which, they borrow elements of other languages. In the results of language contacts, Uzbek language have borrowed many lexical units from different languages. Among them English borrowings (anglicisms) play an important role, which began to penetrate into Uzbek two centuries ago. Linguistic literature distinguishes oral and written, direct and indirect methods of borrowing. The written method of borrowing is useful in determining the history and penetration date of borrowed words into the recipient language. The given work is dedicated to study the penetration history and dynamics of anglicisms in the Uzbek language.



ӘЛ-ФАРАБИ АТЫНДАҒЫ ҚАЗАҚ ҰЛТТЫҚ УНИВЕРСИТЕТІ

СЕРТИФИКАТ

2024 жылдың 25-26 сәуір күндері әл-Фараби атындағы

Қазақ ұлттық университетінде өткен

«Ә. ТЕНИШЕВ КЕҢІСТІГІ: ТҮРКІТАНУ ЖӘНЕ ҒЫЛЫМДАҒЫ ҒҰМЫР» атты

Халықаралық ғылыми конференцияға белсене қатысқаны үшін

_____ *Bakriddinova Gulduzxon Bakriddin qizi* _____ беріледі.

Әл-Фараби атындағы

Қазақ ұлттық университеті

филология факультетінің деканы,

ф.ғ.д., профессор

Б.Ө. Жолдасбекова



Әл-Фараби атындағы

Қазақ ұлттық университеті түркітану

және тіл теориясы кафедрасының

меңгерушісі, ф.ғ.д., профессор

Р.А. Авакова